

SAODATLI, SADOQATLI UMR YO'LLARI...**(“Qarisi bor uyning - parisi bor”)***Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi**ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar “ kafedrası mudiri****Abdullayeva Nargiza Nasillayevna***

Zulmatda shamchiroq yo'lni yoritgan.

Ilm tafakkurda yo'lini ochgan.

Qalblarda beminnat mehrini sochgan.

Siz sabab har doim baland parvozlar.

Baxtinga sog' bo'ling, aziz ustozlar!

Dunyoda bitta kasb bor, bu - o'qituvchilikdir, qolgan kasblar uning hosilasidir.

Eng mashaqqatli , zahmatkash kasb egalarini , kasbini ulug'lashimiz, ardog'lashimiz kerak. Bugun biz o'qituvchilikning qattiq nonini yeb, yillar aro xalq farzandiga xizmat qilgan va hozirgi kunda nafaqa davrida o'qituvchilar jamoasiga bosh bo'lgan yoshi ulug' buyuk insonlar haqida qalam tebratmoqchimiz. Bizning Olmaliq shahar , kasb-hunar maktabida ularning borligi bizlar uchun ayni muddaodir. Chunki ularning tajribali bosib o'tgan hayot yo'li, maslahatlari biz uchun namuna, o'rnak olsa arzigulikdir. Ustoz rahbarimiz B.Dusimbetov va o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari M.Tursinqulova nafaqa yoshida bo'lsalarda hormay-tolmay bizlarga bosh bo'lib, tinimsiz mehnat qilishyapti.



Kasb-hunar maktabi direktori Bahodir Ibragimovichning cay'I-harakatlari bilan o'quv xonalari deyarli barchasi zamonaviy electron doskalar bilan ta'minlangan. Informatika fanini o'qitish uchun barcha xonalarda eng oxirgi model kompyuterlar keltirilganligi tahsinga sazovordir. Eng quvonarlisi rahbarimiz tashabbusi ,uddaburonligi bilan amaliyot xonalari to'liq ta'minlangan. Nazariy ma'lumotlarni amalda –tajribada to'liq ko'rib, o'rganaotgan o'quvchilarimiz ertaga yaxshi kasb egasi bo'lishi ---mehnatimizning mevasidir..



Zamon bilan hamnafas , jamoamizga bosh bo'layotgan,o'quv jarayonni namunali olib borayotgan,har kuni yangi-yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilib ,o'qituvchilarni jalb qilayotgan Muhabbat opamizning mehnati beqiyosdir.Ularnng izlanishlari asosida o'quv xonalarimiz, yo'laklarda , innovatsion yangiliklarni har qadamda ko'rib borasiz.Muhabbat opamiz izlanishdan charchamaganligi tufayli te-tez o'qituvchilar orasida ko'rik-tanlovlar she'rxonliklar,o'quvchilar guruhlar orasida gullar bayrami kabi turli musobaqalarni tashkil etishda bosh-qosh bo'ladi.Zamonaviy,davr talabiga muvofiq holda ishlar tashkil qilishga erishgan. Ta'lim muassasasida 1ming 200ga yaqin o'quvchilarning ,100dan ortiq pedagog-xodimlarning ishini, o'qish jarayonini samarali tashkil qilish,bosh-qosh bo'lish o'z-o'zidan emas ,albatta.

Qadimdan Nodirabegim ham davlat boshqaruvida ko'p muvaffaqiyatlarga erishganligini aytishimiz mumkin. Zeroki, bu kungi rahbar ayollarimiz ularning izdoshlari ekanligini tan olmay ilojimiz yo'q. Ta'lim muassasasida nuroniy ustozlarimizdan yana A.Tulayev, Raimberdi Abduvoitov, R.Eshonqulov kabi yetmish-saksonni oralab ham xalq xizmatida bel bog'lab ishlab kelmoqdalar. Ular keksalik gashtini surib, chetdan tomoshabin bo'lib turishni aslo istamayotgan fidoyi, vatanparvardirlar. Ustozlar yosh o'qituvchilarga o'zlarining ko'p yillik mahoratlarini o'rgatishni, namuna bo'lishni - ham qarz, ham farz deb biladilar..

- "O'tiravermasdan qaddimizni tik tutib, innovatsion pedagogik texnologiya, raqamli texnologiya davriga mos bo'lishimiz kerak" - deydi nuroniy ustozlarimiz.

Bu ustozlarimizning orzulari bisyor, ularning tafakkur olami keng, fikri, aqli, qalb kechinmalari oqayotgan suvday o'ychandir. Ular umri davomida hayotning achchig'i-yu chuchugi, shodligi-yu tashvishlarini ko'p bora tatigan bo'lib, qalbi ipak tolalariday nozik bo'lsa ham, yosh avlod xizmatidan, ularga o'rgatishdan hech og'rinishmaydi.

...Xa, oqqan daryo oqaveradi—deydi xalqimiz. Maqsadni ko'zlab harakat qilish bu yo'lda to'xtamaslik esa, albatta, muvaffaqiyatlarga olib keladi.

Yetmish—saksonni qoralasada qaddi baland, qadri baland ustozlarimizni bilimlari, tajribalari barchamizga o'rnak bo'lib kelmoqda.

Ruhiyati tetik, ishga chanqoq nuroniy ustozlarimiz borligi bizga, aynan yoshlarga kuch-quvvat bag'ishlaydi, -motivatsiya beradi.

Ularning duoga ochilajak qo'llari yaratgandan yurtga tinchligu, mo'l rizq-ro'z so'raydi va duolar ijobatida bu O'zbekistonda har doim tinchlik hukm suraveradi.